

# **Uchish aeroportining o'zgarishi**

**2022 16 Mart**

Oqto'ba (Qozog'iston) xalqaro aeroportida texnik ishlarning (uchish-qo'nish yo'lagini ta'mirlash) amalga oshirilishi tufayli Uzbekistan Airways HY-9729/HY-9730, Nukus - Oqto'ba - Nukus aviaqatnovlarining yo'nalishini o'zgartirishga majbur bo'ldi.

Endi 2022 yilning 17, 22 va 24-mart kunlari Nukus - Oqto'ba - Nukus aviaqatnovi Nukus - Oqtov - Nukus yo'nalishida amalga oshiriladi.

Yo'lovchilar Oqto'ba Xalqaro Aeroportiga bekor bo'lgan parvozlarning aviachiptalarining to'liq qiymatini aviachipta xarid qilingan joyda shtrafsiz qaytarib olish imkoniga egalar.

Uzbekistan Airways vaqtinchalik noqulayliklar uchun uzr so'raydi.